

## VASIYLIK VA XOMIYLIK INSTITUTINING MUOMALA LAYOQATI MASALALARIDA QO'LLANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7856198>

**Choriyeva Xurshidabonu Xurram qizi**

*O'zbekiston Milliy universiteti*

"Fuqarolik jamiyatni va huquq ta'limi" kefdrasi o'qituvchisi

### **Annotatsiya.**

Muallif mazkur maqolada fuqarolik huquqiy munosabatlarini hal qilishda, ya'ni fuqarolarning huquq va muomala layoqatini to'liq amalga oshirishda vasiylik va homiylik institutining ahamiyatini, voyaga yetmagan shaxslarning hamda jismoniy kamchiligi bo'lgan shaxslar yoki ruhiy kasallikka chalingan shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek mulkiy va shaxsiy huquqlarni qo'riqlash, himoya qilish hamda to'liq asosda amalga oshirish, vasiylik va homiylik munosabatlarini takomillashtirish borasida bugungi kunda zamonaviy fuqarolik huquqining qarashlari va yondashuvlarini o'zgartirish masalalarini nazariy va amaliy jixatdan yoritib bergen.

### **Kalit so'zlar.**

Vasiylik, homiylik, vasiylik va homiylik organlari, vasiylik va homiylik munosabatlarining sub'ektlari, muomila layoqati, muomilaga layoqatsiz shaxslar.

Ma'lumki, yuridik fanlarning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan fuqarolik huquqi jamiyatda barqarorlik va huquqiy tartib o'rnatishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda yuridik fanlarning asosiy maqsadi ham ijtimoiy munosabatlarning qonuniyatlarini va huquqiy qoidalarini o'rganish, tadqiq qilish, ularga ilmiy va amaliy baho berish, yangilanayotgan jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondoshish hamda amaliyot uchun har tomonlama mukammal, asoslangan nazariy va amaliy xulosalar, taklif va tavsiyalar berishdan iboratdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, huquqiy fanlarni rivojlantirishga keng imkoniyat va sharoitlar yaratildi. Huquq fanlari va tarmoqlari bo'yicha fundamental va amaliy ahamiyatga molik ishlar qilindi, lekin shunday bo'lsa-da, fuqarolik huquqiy fanlarni ilmiy-nazariy tadqiq etish hali bu sohada o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolarning mavjudligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Bu borada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari ko'pincha mavjud holatni bayon qilish va tasvirlash bilan cheklanib, fanning huquqiy taraqqiyot istiqbollarini bashorat qilishdek muhim funksiyasi nazardan chetda qolmoqda<sup>21</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, istiqlol yillarida bosib o'tgan shonli yo'limizga nazar tashlab, ertangi kunimizga, o'z kuch va imkoniyatlarimizga bo'lgan ishonchimiz yanada ortmoqda. Mamlakatimizni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasiga muvofiq barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirayotgan islohotlarimiz bu borada hal qiluvchi omil bo'lmoqda<sup>22</sup>. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sezilarli darajada fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarini hal qilishda, ya'ni fuqarolarning huquq va muomala layoqatini to'liq amalga oshirishda vasiylik va homiylik institutining ahamiyati nihoyatda kengdir. Uning asosiy vazifasi voyaga yetmagan shaxslarning hamda jismoniy kamchiligi bo'lgan shaxslar yoki ruhiy kasallikka chalingan shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun, shuningdek mulkiy va shaxsiy huquqlarni qo'riqlash, himoya qilish hamda to'liq asosda amalga oshirishdan iboratdir.

Darhaqiqat, bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni jumladan, vasiylik va homiylik munosabatlarini takomillashtirish fuqarolik huquqi sub'ektlari faoliyatining samaradorligi oshishiga xizmat qilishini hisobga olsak, bugungi kunda zamonaviy fuqarolik huquqining bu boradagi qarashlari va yondashuvlarini o'zgartirish, masalalariga aloxida e'tibor berish lozimki, zero, bu jihatlar mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi<sup>23</sup>.

Vasiylik va homiylik instituti qadimdan ya'ni, Rim quldorchilik davlatidan boshlab paydo bo'lgan. Rim fuqarolik huquqida voyaga yetmagan shaxslarning (yosh bolalarni) huquq va erkinliklarini chegaralash, ularning huquqlaridan biron - bir manfaat asosida foydalanishi hatto jinoyat bo'lib hisoblangan<sup>24</sup>.

Rim davlatida (**sui iuris**) o'ziga - o'zi xo'jayin ya'ni, ozod bo'lgan Rim fuqarolari hamda shu davlat hududida istiqomat qilib turgan shaxslar o'zining

<sup>21</sup>Topildiev V.R. Zamonaviy texnologiyalarni fuqarolik-huquqiy fanlarning rivojlanishi va fuqarolik huquqiy munosabatlarga ta'siri // "Fuqarolik huquqiy fanlarini rivojlantirish tendensiyalari va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish istiqbollarri" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -T., 2022. 47-62 betlar.

<sup>22</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. // -T.: 2020 yil 31 avgust.

<sup>23</sup> Topildiev V.R. (2022). O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik institutini takomillashtirish to'g'risida ayrim muloxazalar. So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 5(1), 402-409.

<sup>24</sup> Topildiev V.R., Topildiev B.R Rim huquqi. O'quv qo'llanma. -T., «Yridik adabiyotlar publish» 2022, 204 b.

kasalligi, nogironligi yoki boshqa holatlar bilan bog'liq bo'lgan hollarda, o'zining fuqarolik huquq layoqatlarini amalga oshiruvchi shaxslarning yordam berishiga muhtoj bo'lganlar. Muomalaga layoqatsiz fuqaro shahsini, uning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda mulkiy huquqlarini qo'riqlash, voyaga yetmagan shaxslar, yengil tabiatli xotinlar, eri o'layotgan paytda vasiyatnomada xotiniga kim vasiy yoki homiy bo'lishini tayinlab ketgan holda-bu xotinga, aqli zaif bo'lgan shaxslarga vasiylik va homiylik belgilangan<sup>25</sup>.

Bundan tashkari "huquq nazariyasi bo'yicha, ayrim mualliflarning fikricha vasiylik va homiylik oila huquqi va fuqarolik huquqi normalaridan tashqil topgan birgalikdagi institut sifatida tan olinadi".<sup>26</sup>

Demak muomalaga layoqatsiz fuqarolar shaxsini uning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda mulkiy huquqlarni qo'riqlash uchun vasiylik va homiylik belgilanadi, deb Fuqarolik kodeksining normalarida ko'rsatilgan. Umuman vasiylik shundan iboratki, bunda muomalaga layoqatsiz shaxs o'n to'rt yoshga to'limgan bo'lsalar, hamda bu fuqarolar karlar, ko'rilar, soqovlar, duduqlanib gapiradigan shaxslar ruhiy kasal va aqli zaiflar bo'lishligi mumkin bo'lgan shaxslar nomidan vasiy harakat qiladi va o'zining harakatlari bilan vasiylikka olingan shaxs uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi.

Homiylidka bo'lган shaxslarga homiy muomala layoqatiga ega bo'lган shaxslarga (o'n to'rt yoshdan, o'n sakkiz yoshgacha bo'lган fuqarolarga) o'z huquqlarini amalga oshirish, majburiyatlarini bajarishda yordam ko'rsatadilar, shuningdek, ularni uchinchi shaxsning ba'zan bo'lishi mumkin bo'lган yomon niyatli harakatlaridan saklaydilar.

Homiylidka bo'lan shaxslarga homiy muomala layoqatiga ega bo'lган shaxslarga (o'n to'rt yoshdan, o'n sakkiz yoshgacha bo'lган fuqarolarga) o'z huquqlarini amalga oshirish, majburiyatlarini bajarishda yordam ko'rsatadilar, shuningdek, ularni uchinchi shaxsning ba'zan bo'lishi mumkin bo'lган yomon niyatli harakatlaridan saklaydilar. Homiylik ba'zan jismoniy kamchiliklari bo'lган shaxslarga, masalan, ko'rlik, mayiblik kar, soqov, duduqlar spirtlar, ichimliklarni va giyoxvandlik vositalarni, psixotrop moddalarn iste'mol qilishligi sababli o'z huquqlarini o'zlar amalga oshira olmaydigan va himoya qila olmaydigan to'la muomala layoqatiga ega bo'lган shaxslarga nisbatan ham belgilanadi. Bunday shaxslarga nisbatdan homiylikning vazifasi huquqlarni olish yoki ularni amalga oshirish bilan bog'liq turli harakatlarni ular uchun bajarishdan iborat.<sup>27</sup>

<sup>25</sup> Topildiev V.R. Rim huquqi. -Toshkent: Yangi asr avlod, 2013, 259 b.

<sup>26</sup> Raxmonqulov X.A.R. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi kismiga umuiy tafsif va sharxlar. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, T., 1997 .128-129 b

<sup>27</sup> Vebers Ya.R. "Pravosub'ektnost grajdjan v sovetskem grajdanskem i semeynom prave" - Riga, 1976. str 243.

Vasiy va homiyning huquqiy vakolatlarining bir - biridan farqi shundan iboratki vasiylik o'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarning nomidan to'liq harakat qilinadi. Ya'ni, vasiy bu yoshdagi yigit va qizlarning nomidan to'liq harakat qilib, o'zi uchun biron - bir manfaatni ko'zlamaydi, agar o'zi uchun biror manfaat vujudga kelar ekan, bu tuzilgan bitimlar va shartnomalar nohaqiqiy deb hisoblanib, shartnoma bo'yicha olingan barcha mulkiy huquqlari, huquq ob'ektlari har - birining o'zlariga kaytariladi.

Homiy esa 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar, ya'ni qisman muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar, hamda to'liq muomala layoqatiga yetsa ham, lekin ba'zi qilgan harakatlarini to'liq tushunib yetmaslik, uning huquqiy oqbatini yaxshi anglay olmaslik natijasida ham ularga homiylik belgilanishi mumkin.

Demak, vasiy voyaga yetmagan shaxslarning nomidan to'liq asosda barcha harakatlarni amalga oshirsa, homiy esa qisman voyaga yetgan shaxslarning huquqini himoya qiladi, hamda ba'zi bir huquqlarning qirralarini yoki huquq va burchlarining bir qismini himoya qilishligi mumkin.<sup>28</sup>

Mahalliy organlar vasiylik va homiylik organlari bo'la oladi. Ular voyaga yetmaganlarga nisbatan vasiylik harakatlarini amalga oshirishni yosh bolalarga nisbatan - xalq ta'limi bo'limlariga, ruhiy kasal va aqli zaiflarga nisbatan - sog'liqni saqlash bo'limlariga, vasiylikka olinuvchilarining boshqa toifalariga nisbatan esa ijtimoiy ta'minot bo'limlariga yuklaydilar. Qishlok joylarida vasiylik va homiylik fuqarolik yig'inlari kengashi tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashaydigak, ota-onasining karamog'idan mahrum bo'lgan O'zbekiston Respublikasining voyaga yetmagan fuqarolarga va sog'lig'i tufayli o'z hukuqini mustaqil ravishda amalga oshira olmaydigan, o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan, O'zbekiston Respublikasining voyaga etmagan fuqarolariga vasiylik va homiylik faoliyatini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining konsullik idoralari zimmasiga yuklanadi. Agar vasiylikka olinuvchining mulki u turgan joyda bo'lmasa, ikki vasiy: biri uning o'ziga nisbatan, ikkinchisi vasiylikka olingan shaxsning mulkiga nisbatan tayinlanishi mumkin.<sup>29</sup>

Agar vasiylikka olinuvchining mulki u turgan joyda bo'lmasa, ikki vasiy: biri uning o'ziga nisbatan, ikkinchisi vasiylikka olingan shaxsning mulkiga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Ota - onalar vasiylik va homiylik vazifalarini alohida tayinlamay, qonun bo'yicha bajaradilar.

<sup>28</sup> Grajdanskoe pravo -M., "Prospekt", 2001, str 99.

<sup>29</sup> Topildiev V.R. Fuqarolik huquqi. Darslik. -T., «Yuridik adabiyotlar publish» 2022. 592 b.

Ota – onalari bo’limgan takdirda yoki ular amalda bu vazifani birorta sababga ko’ra amalga oshirmasa, Masalan, qamoqda yoki shifoxonada bo’lishi tufayli bajara olmasalar yoki ota – onalik huquqidан mahrum bo’lingan bo’lsalar, vasiylik va homiylik organlari vasiy va homiyni, birinchi navbatda, vasiylikka olinuvchiga yaqin shaxslardan birini tayinlaydi.

Muomalaga layoqatsiz shaxslar, sud tomonidan ota – onalik huquqlaridan mahrum qilingang shaxslar, shikoyat qilganligi uchun ozodlikdan mahrum qilingan fuqarolar va manfaatlari vasiylikka oluvchining manfaatlariga qarama – qarshi bo’lgan shaxslar vasiy va homiy qilib tayinlanishi mumkin emas.

Yoshi oltmishdan oshgan, fuqarolar kasalliklari yoki bajarib turgan ishlari bo’yicha vasiylik vazifalarini bajara olmaydigan shaxslar, sakkiz yoshgacha bo’lgan bolalarni tarbiyalovchi onalar va boshqa birovga vasiy va homiy bo’lgan shaxslar vasiy qilinib tayinlanishidan bosh tortishlari mumkin.

Vasiy va homiyning asosiy vazifasi vasiylikka oluvchining shaxsi va mulki yuzasidan g’amxo’rlik qilishdan ya’ni vasiylikka va homiylikka olinuvchining manfaatlarini qo’riqlashdan iborat.

Binobarin, vasiylikka oluvchi o’ziga ishonilgan mulkdan o’zi uchun hech qanday foya olmasligi lozim. U vasiylikka olgan shaxsni asrash va uning mulkini idora etish harajatinigina amalga oshirishga haqli bo’ladi.

Umumiy qoida bo’yicha vasiylik va homiylik faoliyatları tekin haqsiz bajariladi. Fakat daromad keltiradigan mulklar bo’lgan takdirdagina vasiy organlari vasiyga o’sha mulkdan kelgan daromadning 10 foizidan ortiq bo’limgan miqdorda haq to’lashlari mumkin.

Vasiy vasiylikka olingan shaxs tomonidan bitimlar tuzishga haqli, lekin vasiylikka oluvchining mulkiy ahvoliga yomon ta’sir etadigan bitimlar tuzishda vasiylik organlarining roziliklari bilan ish qilishlari lozim.

Notarial tasdiqlashni talab etadigan shartnomalar tuzish, vasiylikka olingan shaxsga qarashli mulkiy huquqlardan voz kechish, mulkni taqsim qilish va shunga o’xshashlar uchun vasiylik organlarining roziliqi zarur. Yosh bolalarga qarashli bo’lgan imoratlarni sotish uchun vasiylik organlaridan maxsus ruhsat olinishi kerak.

Ayniqsa uy – joyni, hovlini, xonadonlarni sotishlik faqat notarial idoralar tasdig’idan yoki guvohlantrilgandan keyin, qishloq joylarida notarial idoralar bo’limgan taqdirda, qishloq kengashlari daftarlardan qayd qilib o’tkazilgandan so’ng, hatto yosh voyaga yetmagan shaxslar uyini sotayotgan vaqtida, unga mehnat omonat cassalarida hisob ochgan holda va sotilgan uy – joyning pulini voyaga

yetmagan shaxsning hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan bu munosabatlar amalga oshriladi.<sup>30</sup>

Vasiy vasiylikka olingan shaxsning o'zi bilan va uning nomidan o'zining yaqin kishilar bilan bitimlar tuza olmaydi, chunki bunda vasiylikka oluvchining manfaatlariga zarar keltirib, o'ziga yaqin kishilarning manfaatlariga ustинlik berish havfi bo'lisligi ehtimoli mavjud.

Vasiylar voyaga yetmaganlarning tarbiyalanishlariga, sog'liklariga g'amxo'rlik qilishga va ular bilan birga turishga majburdirlar.

Ruhiy kasallarning vasiylari esa, ularni davolash va sog'liklariga muvofiq sharoitda asrash tadbirlarini ta'minlashlari lozim. Homiylar g'amxo'rlik qilishlari uchun o'zlariga ishongan shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlarida yordam ko'rsatadilar, ularni uchinchi shaxsdan yomon niyatli harakatlardan saqlaydilar.

Bitim tuzish uchun vasiylik va homiylik organlarining roziliklari talab qilinmagan hollarda, bitimlar tuzishga rozilik berishlari mumkin.

Vasiylar va homiylar o'z himoyalariagi shaxslarning huquq va manfaatlarini, har qanday shaxslar bilan munosabatlarida shu jumladan sudlarda ham maxsus vakolatnomasiz himoya qila oldilar. (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 32- moddasi).

Vasiylik va homiylik bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga oid bo'lgan asosiy qoidalar O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi<sup>31</sup>, O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni<sup>32</sup> hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi<sup>33</sup> Nizom bilan tartibga solinadi

<sup>30</sup> Zokirov I.B. "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi" -T., "Adolat" 1996. 43 bet.

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-songa ilova; 2003 y., 1-son, 8-modda; 2004 y., 1-2-son, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 14-son, 133-modda; 2008 y., 16-son, 117-modda; 2009 y., 37-son, 401-modda; 2010 y., 35-36-son, 300-modda, 37-son, 313-modda; 2011 y., 40-son, 410-modda; 51-son, 542-modda; 2013 y., 18-son, 233-modda; 2014 y., 4-son, 45-modda; 2016 y., 39-son, 457-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son, 10.01.2018 y., 03/18/459/0536-son, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son; 29.08.2019 y., 03/19/558/3662-son, 04.12.2019 y., 03/19/586/4106-son; 07.01.2020 y., 03/20/600/0023-son, 11.03.2020 y., 03/20/608/0278-son, 05.10.2020 y., 03/20/640/1348-son; 04.12.2020 y., 03/20/653/1592-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 22.10.2021 y., 03/21/723/0983-son; 14.03.2022 y., 03/22/759/0213-son; 18.05.2022 y., 03/22/770/0424-son).

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 1-son, 1-modda, 2016 y., 52-son, 597-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son; 15.01.2020 y., 03/20/602/0052-son, 28.09.2020 y., 03/20/638/1333-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 22.10.2021 y., 03/21/723/0983-son).

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida 2014 yil 22 sentyabrdagi 269-son Qarori. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2014 yil 29 sentyabr, 39-son, 490-modda.

Fuqarolik va oila kodekslarida fuqarolik huquq layoqati va muomala layoqati bilan bevosita bog'liq bo'lgan vasiylik va homiylik tushunchasi, vasiylik va homiylikni belgilash asoslari, shuningdek ularning bekor bo`lish asoslari to`g'risida, umuman vasiylik va homiylik bilan bog'liq normalar to`liq o`z ifodasini mazmunini topa olgan.

Hozirgi kunda aholi orasida vasiylik va homiylik nima uning zamirida qanday ma'no yotadi va uni qanday organlar amalga oshiradi, shuningdek ularning vazifalari nimalardan iboratligi to`g'risida to`la tushunchalar mavjud emas.

Shuning uchun bizning fikrimizcha aholi o`rtasida bu xususida keng targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish, shuningdek, ushbu masalalar bo'yicha jurnallar va gazetalarda ilmiy maqolalarni yanada ko`proq chop etish xamda radio va televideniyeda vasiylik va homiylik munosabatlari to`g'risida turkum ko`rsatuqlar olib borilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Топилдиев В.Р. Замонавий технологияларни фуқаролик-хуқуқий фанларнинг ривожланиши ва фуқаролик хуқуқий муносабатларга таъсири // "Фуқаролик хуқуқий фанларини ривожлантириш тенденсиялари ва фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш истиқболлари" мавзусидаги Республика илмий-амалий конференсия материаллари. -Т., 2022. 47-62 бетлар.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг О`збекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма то`ққиз йиллигига бағишинланган тантанали маросимдаги нутки. // -Т.: 2020 йил 31 август.
3. Топилдиев В.Р. (2022). Ўзбекистон Республикасида васийлик ва ҳомийлик институтини такомиллаштириш то`ғрисида айрим мулохазалар. Со`нги илмий тадқиқотлар назарияси, 5(1), 402-409.
4. Топилдиев В.Р., Топилдиев Б.Р Рим ҳуқуқи. О`қув қо`лланма. -Т., «Юридик адабиётлар publish» 2022. 204 б.
5. Топилдиев В.Р. Рим ҳуқуқи. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. 259 б.
6. Раҳмонқулов Х.Р. О`збекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг биринчи қисмига умумий тавсиф ва шарҳлар. "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси" нашриёт уйи, Т., 1997 .128-129 б

7. Веберс Я.Р. "Правосубъектность граждан в советском гражданском и семейном праве" - Рига, 1976. стр 243.
8. Гражданское право. -М., "Проспект", 2001, стр 99.
9. Топилдиев В.Р. Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. -Т., « Юридик адабиётлар publish » 2022, 592 б.
10. Зокиров И.Б. "Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик ҳуқуқи". Т., "Адолат" 1996, 43 бет.
11. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сонга илова; 2003 й., 1-сон, 8-модда; 2004 й., 1-2-сон, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари то`плами, 2007 й., 14-сон, 133-модда; 2008 й., 16-сон, 117-модда; 2009 й., 37-сон, 401-модда; 2010 й., 35-36-сон, 300-модда, 37-сон, 313-модда; 2011 й., 40-сон, 410-модда; 51-сон, 542-модда; 2013 й., 18-сон, 233-модда; 2014 й., 4-сон, 45-модда; 2016 й., 39-сон, 457-модда; 2017 й., 37-сон, 978-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.01.2018 й., 03/18/456/0512-сон, 10.01.2018 й., 03/18/459/0536-сон, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон; 29.08.2019 й., 03/19/558/3662-сон, 04.12.2019 й., 03/19/586/4106-сон; 07.01.2020 й., 03/20/600/0023-сон, 11.03.2020 й., 03/20/608/0278-сон, 05.10.2020 й., 03/20/640/1348-сон; 04.12.2020 й., 03/20/653/1592-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 22.10.2021 й., 03/21/723/0983-сон; 14.03.2022 й., 03/22/759/0213-сон; 18.05.2022 й., 03/22/770/0424-сон).
12. Ўзбекистон Республикасининг "Васийлик ва ҳомийлик тұғрисида"ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари то`плами, 2014 й., 1-сон, 1-модда, 2016 й., 52-сон, 597-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2018 й., 03/18/486/1559-сон; 15.01.2020 й., 03/20/602/0052-сон, 28.09.2020 й., 03/20/638/1333-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 22.10.2021 й., 03/21/723/0983-сон).
13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Васийлик ва ҳомийлик то`ғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси қонунини амалга оширишга доир норматив-хуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш ҳақида 2014 йил 22 сентябрдаги 269-сон Қарори. "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари то`плами", 2014 йил 29 сентябр, 39-сон, 490-модда.

14. Раҳимжонов, А. Б. Ҳ. (2022). КЎЧМАС МУЛКНИ СОТИШ ШАРТНОМАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 1041-1049
15. Rakhimjonov, A. (2021). Increasing Civil Liability For Violation Of Rights To Real Estate. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 3(04), 205-212.
16. Раҳимжонов, А. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ КУПЛИ-ПРОДАЖИ ЖИЛЬЯ. Academic research in educational sciences, 3(1), 632-638.